

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

### **ZAMONAVIY O'QITUVCHI VA UNING OBRAZI**

***Baratova Dilbarxon Soliyevna***

*Andijon viloyati Ulugnor tumani  
maktabgacha va maktab ta'lifi  
bo'limiga qarashli 23- umumiy  
o'rta ta'lif maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagog va uning obrazi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar va hozirgi zamon o'qituvchisi qanday bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Pedagogik mahorat o'qituvchi sifatining muhim tarkibiy qismi. Til bilimdonligi haqida ham to'xtalib o'tilgan. O'qituvchi bola qalbining injeneridir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy o'qituvchi, obrazi, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot ijodkor, notiq, tashabbuskor.

#### **KIRISH**

Ustoz misli yonib turgan shamga o'xshaydi. O'zi yonib atrofga nur-ziyot taratadi. Ma'lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o'rgatadi. Ustoz – ilm o'rgatuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tarbiyalovchi murabbiyidir. Zamonaviy o'qituvchi qanday boo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha koo'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urfatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida shakllantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Hozirgi zamon

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas‘uliyatlar o‘qituvchilardan talab qilinadi:

- O‘qituvchi eng avvalo mas‘uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma’rifat targ‘ibotchisidir.
- O‘qituvchi tabiatan o‘quvchilarini seva olishi, o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak.
- O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni doimiy bera olishi lozim.
- Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor boo‘lib borishi talab etiladi.
- O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borishi, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.
- O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘limtarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.
- O‘qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta‘lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.
- O‘qituvchi ijodkor, ta‘lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.
- O‘qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

- O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

- O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalg etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

- O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

- O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

- O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, zamonaviy pedagog yuksak madaniyatli, notiq, o'quvchilarни sevuvchi, mehribon, ijodkor, o'z fanini chuqur biluvchi, psixolog, zamonaviy texnikalardan foydalana oluvchi, qobiliyatli shaxs bo'lishi kerak. O'qituvchi bola qalbining injeneridir. O'qituvchilik kasbi yuksak sharafli kasbdir. Bu kasb hech bir kasbga o'xshamaydi.

Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'qituvchilik kasbiga juda yuqori baho

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

berib, unga shunday ta'rif beradi: **Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin.** Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagog har tomonlama mukammal, o'quvchilar uchun ideal shaxs bo'lishi lozim. Hattoki, pedagogning kiyinishi ham bolalarni tarbiyalasin. O'qituvchilar o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. **O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:**

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigiyenasidan o'z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

xabardor bo‘lib borishi;

- ta’lim-tarbiya metodikasidan ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o‘z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta‘limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;
- o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo‘ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste‘dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. O‘qituvchi o‘quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o‘quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchigina, o‘z kasbiy faoliyatida ulkan zafarlarga erishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagog o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham ingliz tilini hech bo‘lmaganda mukammal darajada bo‘lmasa ham qisman bilishi kerak. Sababi boshlang‘ich sinflarning yangi nashrdan chiqqan matematika darsliklarida o‘lchov birliklari ingliz tilida kiritilgan. O‘qituvchi bolaga buni tushuntira olishi kerak, buning uchun albatta ingliz tilidan xabardor bo‘lishi lozim. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va smart doskalar bilan ishslash uchun ham til bilimdonligi pedagog uchun zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Pedagogik mahorat” darslik A.Xoliqov –Toshkent- 2011
2. “Umumiy pedagogika” B.X.Xodjayev –Toshkent-2017
3. “Pedagogik atamalar lug‘ati” Toshkent-2008
4. “Pedagogik